

ASTRONOMIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

Ismoilova Nafisa Isroil qizi

Navoiy viloyati Uchquduq tumani Kasb-hunar maktabi

Fizika va astronomiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada astronomiya fani osmon jismlari va ular sistemalarining harakatini, tuzilishini, kelib chiqish sabablarini va rivojlanishini o'rganadigan fanligi va astronomiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Astronomiya, osmon jismlari, astronomic ma'lumotlar, Misr, Xitoy, Bobil, vaqt, gorizont, Yer, Oy, Quyosh, fan, materiya.

Astronomiya fani osmon jismlarining va ular sistemalarining harakatini, tuzilishini, kelib chiqishini va rivojlanishini o'rganadigan fan. Astronomiya eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, u insonning amaliy ehtiyojlari asosida yuzaga keldi. U to'plagan bilimlar insoniyatning amaliy ehtiyojlari uchun qo'llaniladi va xizmat qiladi.

Dastlabki astronomik ma'lumotlar bundan ming yil avval Bobil, Misr va Xitoyda ma'lum bo'lgan bo'lib, ulardan shu mamlakat xalqlari vaqtni o'lchash, gorizont tomonlarini aniqlashda keng foydalanganlar.

Hozirgi kunda nafaqat fan sifatida, balki qishloq va xalq xo'jaligida, geografik joylarni o'rganishda, uchirilgan sun'iy yo'ldoshlarning axbarotlarni qabul qilish va uzatishda, foydali qazilmalarni izlab topishda ham astronomiyaning kundalik ehtiyojga aylanayotganligini sezishimiz mumkin.

Ammo unung vazifalari shu masalalarni yechish bilangina chegaralanmaydi.

Bizning Yer Koinotning bir qismi hisoblanadi. Oy va Quyosh Yerdan okean hamda dengiz suvining ko'tarilishi va pasayishi (asosan Oyning Yerga yaqinlashishi va uzoqlashishi hisobiga)ni yuzaga keltiradi. Quyosh nurlanishi va bu nurlanishning o'zgarishi Yer atmosferasidagi jarayonlarga va organizmlarning hayot faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, astronomiya turli kosmik jismlarning Yerga ta'sir etish mexanizmini ham o'rganadi.

Astronomiya kursi talabaning maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olgan fizika-matematika va tabiiy-ilmiy ma'lumotlarni to'ldirib, nihoyasiga yetkazadi.

Hozirgi zamon astronomiyasi matematika va fizika, biologiya va kimyo, geografiya va kosmonavtika bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu fanlar yutuqlaridan foydalanadi va o'z navbatida ularni boyitadi. Boshqa fanlar oldiga yangidan-yangi vazifalar qo'yish bilan ularning taraqqiyotini kuchaytiradi.

Astronomiyani o'rganishda qaysi ma'lumotlar ishonchli dalillardan va qaysilari esa vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan ilmiy farazlardan iboratligiga ahamiyat berish zarur.

Astronomiya koinotdagi moddalarni laboratoriya sharoitida yuzaga keltirib bo'lmaydigan holatlarda va masshtablarda o'rganadi, shu bilan u olamning fizik manzarasini hamda bizning materiya haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi. Bularning hammasi talabalarning tabiat haqidagi ilmiy tasavvurlarini rivojlantirishda kata ahamiyatga ega.

Astronomiya Quyosh va Oy tutilishlarini, kametalarning paydo bo'lishini va yo'qolishini oldindan hisoblab chiqish, Yer va boshqa osmon jismlarining kelib chiqishi va evolyutsiyasini tabiiy-ilmiy tushuntirish imkoniyatlarini ko'rsatish bilan insonning bilish doirasi cheksizligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda astronomiya kosmik fazoni o'rganishda va uni zabt etishda, kosmonavtikani rivojlantirishda va bizning sayyoramizni kosmosdan turib o'rganishda, o'quvchilarda esa kosmonavtlik, uchuvchi va shu bilan bir qator kasblarga qiziqishini ortishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Mamadazimov, B.F. Izbosarov, I.R. Kamolov "Astronomiya" Toshkent-2014
2. M. Mamadazimov "Astronomiya" darslik "Davr nashriyoti" Toshkent-2018.